

NEMIS TILIDA HAYRATLANISH LEKSIKASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Xoliyarov Lutfulla Toshkuvatovich

O‘zbekiston davlat jahon
tillari universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada his-tuyg‘ular nazariyasi, jumladan, amerikalik psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan "hayratlanish" hissi haqida ma'lumotlar beriladi. Hayratlanishning fiziologik va psixologik aspektlari, uning paydo bo‘lishi, mimik ifodalari, ijobiy va salbiy his-tuyg‘ular bilan aloqasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada hayratlanishni ifodalovchi nemischa leksika ham tadqiq etiladi, bu his-tuyg‘ularni izohlash va tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: his-tuyg‘u, hayratlanish, psixologiya, tilshunoslik, psixolingvistika, fiziologik o‘zgarishlar, mimik ifodalar, ijobiy his-tuyg‘ular, salbiy his-tuyg‘ular.

Hozirgi kunda insoniyatning eng dolzarb muammolaridan biri his-tuyg‘u muammosini tadqiq qilish hisoblanadi. His-tuyg‘u haqida hozirgi kunda nafaqat psixologiyada, balki tilshunoslikda, psixolingvistikada, kognitiv tilshunoslikda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

His-tuyg‘uning asosiy nazariyasi (basic emotions) amerikalik psixologlar [Izard, Ekman.] tomonidan rivojlantirilgan. Bir qator olimlar bazaviy his-tuyg‘u “hayratlanish”ni turlarga bo‘ladilar. [Ekman Cr., Frijda N., Izard C.E., MacDougall B., Plutchik R., Tomkins S.S.] Ekman asosiy his-tuyg‘uni oltiga bo‘ladi: «Freude, Überraschung, Angst, Traurigkeit, Wut und Abscheu». Izard esa asosiy his-tuyg‘uni sakkizga bo‘ladi: «Interesse, Angst, Traurigkeit, Wut, Schuld, Scham, Schüchternheit und Abscheu». Izard asosiy his-tuyg‘u soni bo‘yicha aniqlanishi va nomlanishi kerak deb ta’kidlaydi. [Izard, 1980, p.162]

Hayratlanish so‘zini to‘liq manoda his - tuyg‘u deb nomlab bolmaydi.

Hayratlanish bir zumda stimulyatsiyaning birdan o‘zgarish natijasida paydo bo‘ladi. Tashqi sabablar kutilmagan hodisa sifatida xizmat qilishi mumkin. Misol sifatida, nimadir kutilmaganda paydo bo‘lishi, kutilmagan ovoz va boshqalar. *Hayratlanish*ning mimik ifodasini oson payqash mumkin. Qoshlar baland ko‘tarilishi natijasida peshonada ajinlar paydo bo‘ladi va ko‘zlar kengayib yumaloqlashadi.

Hayratlanish hissi qisqa, ammo miyada bir lahzada paydo bo‘ladi. *Hayratlanish*ni boshdan kechirish xuddi elektr toki urgandek hissiyotni eslatadi: mushaklar bir zumda qisqaradi va odam miyasi nervlariga yetib boradi va qaltirashni keltirib chiqaradi.

Aksariyat odamlar *hayratlanish*ni ijobiy holat sifatida ko‘radi. *Hayratlanish* hodisadida qandaydir vaziyat haqida eslash yoqimli hissiyotni uyg‘otishi mumkin. Bundan tashqari qayg‘u, g‘azab, nafrat, qo‘rquv, uyat haqidagi xotiralar esa yoqimsiz ham bo‘lishi mumkin. *Hayratlanish* ijobiy va salbiy oraliq pozisiyani egallaydi. Hayratlanish juda qisqa vaqtinchalik holat bo‘lib to‘satdan paydo bo‘ladi va xuddi shunday tez yo‘qoladi. Hayratlanish insonning davomiy ragbatlantira olmaydi.



Hayratlanishning asosiy vazifasi yangi hodisaga effektiv va uning oqibatlariga tayyorlashdan iboratdir, ya'ni nerv tizimining faolligiga to'sqinlik qiladi. T. Brauer qo'rquv yoki hayratlanish reaksiyasi yosh bolalarda, hatto yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham yuz berishi mumkinligini isbotlagan.

Nemis tilida *Verwunderung* (*hayratlanish*) ifodani jadvalda keltiramiz.

Fizilogik o'zgarish	den Atem anhalten, sprachlos sein, keine Worte finden, vor Überraschung fassungslos sein
Ko'z	seine Augen traten aus den Höhlen, ein Augenöffner, die Augen öffnen, seinen Augen nicht trauen, etwas anglotzen, mit großen Augen staunend schauen, glotzen
Tashqi o'zgarish	mit offenem Mund staunen, die Kinnlade herunterfallen lassen, so dass sich die Haare kräuseln / sich die Haare kräuseln, die Augenbrauen hochziehen / die Augenbrauen hochziehen lassen
hushuni yo'qotish	den Verstand verwirren, den Verstand verlieren, mit dem Verstand am Ende sein
Beqaror pozitsiya	taumeln, jemanden umwerfen, von seinen Stiften stoßen, mit einer Feder umstoßen, jemanden zum Springen bringen/ aus der Haut fahren- überraschen
Urish, yerga uloqtirish	jemanden wie eine Tonne Ziegelsteine treffen, jemanden (genau) zwischen die Augen treffen, jemanden überraschen, mit kaltem Wasser übergießen, einen Schock haben, überrascht sein, erstaunt sein

Yuqorida ta'kidlanganidan nemis tili mutaxassislari hayratlanishni shunday idrok qiladi deb xulosa qilish mumkin.

Hayratlanish qachonki odam biror fikr bilan to'liq band bo'lganida kutilmaganda paydo bo'ladi. Hayratlanishni boshga urilgan to'qmoq sifatida qabul qilish mumkin, uning natijasida sog'lom fikr yoddan ko'tariladi. Hayratlanish ta'sirida bo'lgan odamni oson tanib olish mumkin: ko'zi katta o'lchamda, qoshlar chimirilgan, og'zi keng ochilgan bo'ladi.

Odamda gapirish va eshitish qobiliyati yo'qoladi, hatto nafas olishda ham qiyinchilikka duch keladi.

"Nemis tilida his-tuyg'ular fe'llardan ko'ra ko'proq sifatlar bilan ifodalanadi: *Maria war traurig, erfreut, ängstlich, wütend, glücklich, angewidert, froh, usw.* va hokazo. Bu turdagi sifatlar passiv hissiyotlarni ifoda etishda qo'llaniladi, fe'llar esa his-tuyg'ular subyekting faolroq rovida ishlatiladi. [Брудный А.А, 1972, s. 38].

Nemis tilida hayratlanishni anglatadigan his-tuyg'u fe'llari kategorial his-tuyg'u fellari va differensial his-tuyg'u fe'llariga bo'linadi. Nemis tilidagi kategorial his-tuyg'u leksikasiga kategorial leksik sath semalari kiradi. Masalan: *verblüfft* -



jemanden so sehr schockieren oder überraschen, dass er sehr verwirrt ist [Schwarz-Friesel, 2007, S. 123]

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki, nemis tilida hayratlanish his-tuygʻusi hayratlanish kategorial his-tuygʻu yordamida tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Брудный А.А. Семантика языка и психология человека. Фрунзе: Илим, 1972. С.326.
2. Джемс У. Что такое эмоция? // Психология эмоций: (тексты). М., 1984. С.83-92.
3. Изард К.Е. Эмоции человека / Пер. с англ. М/. Прогресс, 1980. С.440.
Крюгер Ф. Сущность эмоционального переживания // Психология эмоций: (тексты). М., 1984. С.108-119.
4. Ортони А., Клоур Дж., Коллинз А. Когнитивная структура эмоций // Язык и интеллект. М.: Прогресс, 1996. 486 с. С. 314-384.
5. Fiehler R. Kommunikation und Emotion: theoretische und empirische Untersuchungen zur Rolle von Emotionen in der verbalen Interaktion. — Berlin; New York: de Gruyter, 1990
6. Schwarz-Friesel, M. (2007): Sprache und Emotion. Tübingen: Francke (UTB)